

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDAGI SALBIY OBRAZLAR VA ULARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Bozorov Hamid Xo‘shmurodovich

Termiz davlat universiteti, O‘zbek tilshunosligi kafedrası. Dotsent v.b., PhD.

hamidbozorov65@gmail.com +998937918812

<https://orcid.org/0009-0002-1650-3801>

Anotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalq ertaklaridagi salbiy obrazlar lingvopoetik jihatdan tadqiq etilgan. Salbiy obrazlarning ertak matnlaridagi ishtirokiga ko‘ra guruhlariga ajratilib, misollar asosida tadqiq qilingan hamda badiiy-lingvistik xususiyatlari misollar asosida ko‘rsatib berilgan. Bu obrazlar ertak dramtizmini mustahkamlab, ijobiy qahramon fazilatlarini yoritishdagi o‘rni, shuningdek, xalqning axloqiy-psixologik stereotiplari va estetik idealini aks ettirishi misollar orqali dalillangan. Mazkur maqolada mavzu bo‘yicha keyingi tadqiqotlarda ertak matnlaridagi fonetik-ritmik va semantik-struktural qatlamlarga chuqurroq e‘tibor qaratish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: ertak, lingvopoetika, salbiy obraz, giperbola, afsonaviy, ijtimoiy, maishiy, simvolik salbiy obraz.

ОТРИЦАТЕЛЬНЫЕ ОБРАЗЫ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ И ИХ ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Бозоров Хамид Хушмуродович

Термезский государственный университет, кафедра узбекского языкознания.

И.о. доцента, PhD

Аннотация. В данной статье лингвопоэтически исследуются отрицательные образы в узбекских народных сказках. Отрицательные персонажи классифицированы по степени их участия в тексте сказки и проанализированы на основе конкретных примеров. Художественно-лингвистические особенности этих образов также представлены с примерами. Указано, что данные образы усиливают драматизм сказочного повествования, играют важную роль в раскрытии положительных качеств главных героев, а также отражают морально-психологические стереотипы

и эстетический идеал народа. В статье предлагается в последующих исследованиях уделить больше внимания фонетико-ритмическому и семантико-структурному уровням сказочных текстов.

Ключевые слова: сказка, лингвопоэтика, отрицательный персонаж, гипербола, мифологический, социальный, бытовой, символический отрицательный образ.

NEGATIVE CHARACTERS IN UZBEK FOLK TALES AND THEIR LINGUOPOETIC ANALYSIS

Hamid Khushmurodovich Bozorov

Termez State University, Department of Uzbek Linguistics.

Acting Associate Professor, PhD

Abstract. *This article provides a linguopoetic analysis of negative characters in Uzbek folk tales. The negative characters are classified based on their roles in the narrative and are analyzed using specific examples. The artistic and linguistic features of these characters are also illustrated with examples. It is noted that such characters enhance the dramatic quality of the tale, play an important role in highlighting the virtues of the main positive heroes, and reflect the moral-psychological stereotypes and aesthetic ideals of the people. The article suggests that future research should pay closer attention to the phonetic-rhythmic and semantic-structural levels of folk tale texts.*

Keywords: *folk tale, linguopoetics, negative character, hyperbole, mythological, social, domestic, symbolic negative image.*

Kirish.

O'zbek xalq ertaklarida mavjud obrazlarning tahlili folklor va adabiyotshunoslikning dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu janr xalq og'zaki ijodining qadimiy va muhim yo'nalishlaridan biridir. Ular nafaqat o'yin-kulgi, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, axloqiy me'yorlari va estetik idealini aks ettiradi. Ertakda obrazlar orqali xalqning hayoti, orzusi, dardi, yovuzlikka qarshi kurashi tasvirlanadi. Jahon tilshunosligida lingvopoetika, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika va lingvofolkloristika yo'nalishlarining

taraqqiy etishi o'zbek tilshunosligida xalq ertaklari tilining va obrazlarning xususiyatlarini tavsiflovchi lingvistik, jumladan, leksik, grammatik va stilistik jihatdan tadqiq qilish ehtiyojini tug'dirmoqda. Bu haqida folklorshunos M.Jo'rayev shunday deydi: "O'zbek marosim folklorining janrlar tarkibi, har bir hududning o'ziga xos urf-odatlar va qadriyatlari, turli an'analar bilan aloqador aytim va alomatlar, xalqimizning qadimiy mifologik tasavvurlari, afsona va rivoyatlar, ajdodlarimiz tafakkurining betakror mo'jizalaridan biri hisoblangan ertaklardagi epik obraz va poetik timsollarning tarixiy asoslari, marosim va urf-odatlarining ertaklardagi talqini kabi masalalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda". [3; 4]

Adabiyotlar tahlili.


O'zbek xalq ertaklarining obrazlar tizimini, eng avvalo, ijobiy va salbiy obrazlarga guruhlab tadqiq qilish ma'lum samara beradi hamda ushbu obrazlarning genezisini aniqlanishi muhim ahamiyatga ega. Ertakda mavjud obrazlarda ijobiy obrazlar yetakchi o'rinni egallasa-da yovuzlik, to'siq, sinov, zulm, haqsizlik timsollarining badiiy ifodasini tahlil qilishda salbiy obrazlar muhim vazifani bajaradi. Shu ma'noda o'zbek xalq ertaklari tilida mavjud salbiy obrazlar xarakterini ifodalovchi til birliklarini aniqlash tadqiqotimizning asosini tashkil etadi. Ertaklarda shunday salbiy qahramonlar mavjudki, ularni asosiy obraz darajasiga ko'tarish mumkin. Chunki "Badiiy adabiyotda qahramonning salbiy, ijobiylikidan qat'i nazar asarda tasvirlanish darajasi mukammallikka erishsa, go'zal obraz deb atash qabul qilingan". [7; 184]

Ertaklardagi mif yozma adabiyot taraqqiyotida muhim o'rin tutgan tafakkur durdonalaridan biri bo'lib, insoniyatning eng qadimgi davrlardagi tasavvurlari va e'tiqodiy qarashlarini o'zida aks ettirgan. Bunday qarashlar turli obrazlar, syujetlar va motivlar shaklida folklor asarlarida bo'y ko'rsatib, ular orqali yozma adabiyot badiiy olamining teranlashuviga ham katta hissa bo'lib qo'shilgan. [2; 159-160] Darhaqiqat, salbiy obrazlarning aksariyati miflardan ertaklar tiliga ko'chgan. B.M.Meletinskiy miflardagi obrazlar haqida gapirar ekan: "Qayerda o'xshashlik bo'lsa, hamma narsa mavjud". [4; 49] Bunda olim miflarda hukmron bo'lgan

analogik tafakkur, ya'ni o'xshashlikka asoslangan tushuncha va sabab-oqibat aloqalarining o'ziga xos shakliga asoslanishini nazarda tutadi. Mifologik tafakkurda narsalar, voqealar, mavjudotlar o'rtasidagi bog'liqlik real sabab-oqibat asosida emas, balki tashqi yoki ichki o'xshashlik asosida belgilanadi. Miflarda quyosh – erkak, oy – ayol; yer – ona, osmon – ota sifatida talqin etiladi. Bu esa inson ongi orqali koinot va tabiat hodisalariga insoniy sifatlarga ega xususiyatlarni yuklash, ya'ni antropomorfizmdir. Shu va shunga o'xshash obrazlarning miflardan ertaklarga ko'chish holatlari ko'p uchraydi, ayniqsa, bu holat salbiy obrazlarda ko'p kuzatiladi. O'zbek xalq ertaklarida shunday matnlar borki, undagi obraz, tasvir yoki nomlar asrlar o'tsa-da, xalqimizga xos madaniy va ma'naviy qadriyatlarni o'zida saqlab, keyingi avlodlar uchun ko'prik vazifasini o'tab kelmoqda. [6; 91]

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbek xalq ertaklarida ham salbiy obrazlar – bu ertak voqealarida ijobiy qahramonga qarshi turgan, to'siq yaratadigan, sinovlarni yuzaga keltiradigan shaxslar yoki mavjudotlardir. Salbiy obrazlarning ertak matnida bir nechta vazifani bajaradi. Shartli ravishda ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:



Salbiy obrazlar, ya'ni dev, ajdarho, yovuz kampir, jodugar ayol, zolim podsho, hasadgo'y aka, o'gay ona va boshqa timsollar xalq og'zaki ijodining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida shakllanib kelgan. Ularning shakllanishiga quyidagi manbalar asos bo'lgan:

Xalq og‘zaki ijodida salbiy obrazlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan jihatlar

1	Mifologik manbalar	qadimgi e‘tiqodlar, animistik tasavvurlar, shayton, jin, ajina kabi yovuz kuchlar haqidagi rivoyatlar
2	Tarixiy-ijtimoiy voqeliklar	zo‘ravonlik, adolatsizlik, sinfiy qarama-qarshiliklar, turmush og‘irligi kabi holatlar ramziy obrazlarga ko‘chgan
3	Diniy-ma‘rifiy tasavvurlar	yomonlik va ezgulik to‘qnashuvi, jinoyat va jazoni aks ettiruvchi axloqiy-falsafiy g‘oyalar
4	Estetik zarurat	ertakning kompozitsion tuzilmasi, dramatik ziddiyat va syujet rivoji uchun antagonist qahramon zarurati

Shundan kelib chiqib, ertak matnlaridagi salbiy obrazlarni deskriptiv tahlilini amalga oshirish, bunday obrazlarning ichki tarkibi, semantik yuklamalari, ularning kontekstdagi funksiyalari tahlil qilish muhim. Bundan tashqari, qanday nutq vaziyatida ishtirok etishi, ular yordamida qahramonlar xarakteri qanday shakllanishi aniqlash orqali kontekstual tahlilni, shuningdek, lingvopoetik vositalarni hamda simvolik obrazlarning ramziy funksiyasi va ularning xalq ongidagi stereotipik belgilar tizimi aniqlash bo‘yicha aniq metodlarni ishlab chiqish lozim.

Tahlillar.

O‘zbek xalq ertaklarida mavjud salbiy obrazlarning asosiy turlarini quyidagicha ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Afsonaviy salbiy obrazlar.


2. Ijtimoiy salbiy obrazlar.

3. Maishiy salbiy obrazlar

4. Simvolik salbiy obrazlar.

Ertaklardagi **afsonaviy salbiy** obrazlarga dev, ajdarho, jodugar, maston yoki sehrgar kampir kabilarni misol qilishimiz mumkin. Afsonaviy salbiy obrazlar ichidan eng ko‘p ishtirok etuvchi obraz dev obrazi hisoblanadi. Bu obrazni

J.Eshonqulov: “O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham biz qadim hikmatlarning timsoli sifatida muhrlanib qolgan mifologik obrazlarga duch kelamizki, ulardan biri dev personajidir. Bu obraz bizni ajdodlarimiz dunyoqarashi, tafakkuri tarixi, olam va ezgulik haqidagi tushunchalari, falsafasi, urf-odatlaridan xabardor qiladi”, [1; 7] – deya ta’kidlaydi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, dev obrazlari ertak matnlarida faqatgina salbiy emas, balki kam bo‘lsa-da, ijobiy obraz sifatida ham gavdalandi. Ushbu obrazlar metafora, epitet, ifoda vositalari orqali tasvirlanadi. Masalan, “*Ko‘zi qizil, tishlari tayoqday, ovozi momaqaldiraqdek dev*” – tasviriy vosita bilan obraz qiyofasi yaratiladi. O‘zbek xalq ertaklarida afsonaviy salbiy obrazlar qahramon yo‘lida sinov, to‘siq yaratuvchi, yovuzlik, shuningdek, zulm timsollari bo‘lib, ular ertak drammatizmini kuchaytiradi hamda axloqiy-psixologik mazmunni boyitadi. Ularni lingvopoetik tahlili esa badiiy ifoda vositalari va til uslublari orqali chuqur anglash imkonini beradi. Bunday obrazlar ijtimoiy, madaniy stereotiplar to‘plamini ifodalaydi. Masalan, “dev” obrazida zulm va hukmronlik stereotipi, “ajdaho”da esa xavf va sir sirli g‘ayritabiiylik ramzi mavjud. *Dev, ajdaho, jodugar* obrazlari qahramon psixikasidagi qarama-qarshi kuchlarni (qo‘rquv va jasorat, adovat va mehr-oqibat) ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ertaklaridagi afsonaviy salbiy obrazlar nafaqat qahramonni sinovdan o‘tkazuvchi kuch, balki til va badiiy uslubning boy ifoda vositalari orqali avtogenetik psixologik-sotsiokultural mazmunni ham aks ettiradi. Ularning lingvopoetik tadqiqi fonetik-ritmik va metaforik qatlamlarni ochib beradi, struktural funksiyalarini aniqlaydi hamda ramziy-semiotik tahlil orqali xalq ongidagi stereotiplarni yoritadi. Shundan kelib chiqib, bu tip obrazlarning vazifalarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:



Ijtimoiy salbiy obrazlarga zolim podsho va xasis boy kabi obrazlarni kiritishimiz mumkin. Bu obrazlar adolatsizlik, xasislik, ochko‘zlik kabi illatlarning salbiy oqibatlarini ko‘rsatish maqsadida matnga olib kiriladi. Bu obrazlar xarakterini tavsiflashda **kontrast**, **antiteza** kabi badiiy tasvir vositalaridan keng foydalaniladi. Masalan: “*Boyning eshigi **oltin**, “ko‘ngli **tosh**”* ifodasi xasis boy obrazining tashqi boylik va ichki kambag‘alligini ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Ijtimoiy-salbiy obrazlardan eng ko‘p uchraydigani zolim podshoh obrazi hisoblanib, o‘z bilganini qiladigan, haqsiz hukmron sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu obraz adolatsizlik, hokimiyatsizlik, zo‘ravonlik kabi ma‘naviy yukni tashish vazifasini ham bajaradi. Quyidagi matnga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, boy obrazining o‘ziga xos xarakteri yaqqol namoyon bo‘ladi: “*Shu tobda boy: “Bolani hozir tortib olsam, u hoynahoy tillaning kamida yarmiga sherik boladi. Undan ko‘ra bolaning shu quduqda o‘lib ketgani yaxshi”, – **deb o‘ylab**, arqonni shartta qirqib yuboribdi. Boy hamma tillani olib, yo‘lga ravona bo‘libdi.* [8; 13]

Yuqoridagi misolda boyning xatti-harakati va ichki meni orqali yoritilgan. Boy obrazining axloqiy tubanligi, ochko‘zligi kabi illatlari badiiy va til vositalari orqali ochib berilgan. Bunda ichki monolog, ya‘ni “***Bolani hozir tortib olsam, u hoynahoy tillaning kamida yarmiga sherik boladi...***” gapi orqali ifodalangan bo‘lib, boyning shaxsiyati va niyatlari oshkor etiladi. Shuningdek, emotsional-

axloqiy baho noverbal tarzda ifodalangan. Matnda boyga nisbatan bevosita salbiy baho berilmagan, ya'ni "yomon", "viydonsiz" deyilgan emas. Ammo uning xatti-harakati orqali o'quvchining o'zi xulosa chiqaradi. Bu esa **"ko'rsatish orqali baholash"** usuli hisoblanib, badiiy matnda kuchli estetik effekt beradi. Bu lingvopoetik tahlil uchun muhim hisoblanadi.

Maishiy salbiy obrazlar. Bunday obrazlarga o'gay ona (hasadgo'ylik, befarzandlik, yomon muomala timsoli), hasadgo'y aka-uka yoki do'st (xiyonat, kibr, yomon niyat ifodasi) kabi obrazlarni misol qilish mumkin. Bu obrazlarning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatishda *ko'chma ma'nolar*, *ironiya*, *kinoya* kabi tasviriy vositalar keng qo'llanadi. Eng ko'p ijtimoiy salbiy obrazlardan biri badjahl o'gay ona yoki opa-singil obrazlari. Ular hasadgo'y, xusumatli ayol obrazlaridir. Ushbu turkum obrazlari tahlili haqida M.Sodiqova fikr bildirar ekan quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "O'gaylikning yuzaga kelishi, yangi xotini o'lgan ota boshqa ayolga uylanishi oilaga o'gay ona kirib kelishi hamda uning qistovida yetim qizning badarg'a qilinishi mazkur tip syujetining an'anaviy qolipiga mos shaklda muhokama qilinadi", [5; 18] – deya ta'kidlaydi hamda o'gay qizning keyingi taqdiri cho'ldagi sarguzashtlari, shahzodaga erga tegishi va o'gay onaning dushmanligi tufayli qayta badarg'a qilish, kaptar ko'rinishidagi afsonaviy homiylar ko'magida mushkul ahvoldan xalos bo'lishi voqealari aks etishini qayd etadi. Bundan tashqari, qayd etib o'tish joizki, o'gaylik faqatgina qiz bilan bog'liq o'rinlarda emas, balki o'g'il bolaning ham o'gay ona qo'lida qolishi ertak matnlarida ko'p ucraydi.

O'gay ona obrazi deyarli barcha Sharq va G'arb ertaklarida mavjud. U ko'pincha o'z farzandi yo'qligi yoki faqat o'z bolasini o'ylashi, boshqalarning farzandlariga nisbatan yomon muomalada bo'lishi bilan tasvirlanadi. "O'gay ona" ishtirok etadigan mashhur o'zbek xalq ertagi "Zumrad va Qimmat". Bu ertakda Zumrad mehribon, sabrli, kamtar qiz bo'lsa, Qimmat o'gay onaning farzandi, erkatoy va erka. O'gay ona esa faqat o'z qizini avaylab, Zumradga og'ir ishlar yuklaydi, unga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'ladi. O'gay ona ko'pincha ko'ngli tor inson, jahl timsoli, zulm ramzi sifatida ko'rsatiladi. U orqali kinoya

bilan haqiqiy hayotdagi beparvo, shafqatsiz, xudbin insonlar tanqid qilinadi. Bu obraz ayollik fazilatlarini: mehr, muruvvatga zid holda tasvirlanadi, bu esa ironiyani kuchaytiradi. Ijtimoiy salbiy obrazlardan yana biri yolg'onchi do'stlar yoki xiyonatkorlar, ya'ni qahramonni sotib ketuvchi kimsalar. Bunday obrazlar, odatda, bosh obrazni o'lim yoqasiga olib keladi. Bu obrazlar orqali yaqinlik tushunchasi kinoyaviy tarzda inkor etiladi. Yaqinlar o'rniga dushmanlar sifatida tasvirlanadi. Bu hol orqali xalq ertaklari "insonni doimo dushmani emas, balki hasadgo'y qarindoshi ham yo'ldan ozdirishi mumkin" degan ogohlikni singdiradi. Ushbu obrazlar oddiy yovuz qahramonlar emas, balki jamiyatdagi ma'naviy illatlarning timsoli sifatida muhim rol o'ynaydi. Ular orqali xalq hasad, kibr, befarqlik kabi illatlarni fosh etadi, mehr, sabr, halollik kabi ijobiy qadriyatlarni yuksaltiradi, har bir inson ijtimoiy rollaridan qat'i nazar, ichki axloqiy sifatlari bilan baholanishi kerakligini ta'kidlaydi.

Simvolik salbiy obrazlar. Bunday obrazlar, asosan, hayvonlar haqidagi ertaklarda ko'p uchraydi hamda ma'lum bir ramzni tashiydi. Masalan, bo'ri, tulki – ayyorlik, xoinlik, qonxo'rlik, ochko'zlik ramzi sifatida hayvon obrazi orqali salbiylik ifodalanadi. Bunda obraz xarakterini yoritishda personifikatsiya keng foydalaniladi. *"Bo'ri lapanglab borib boyagi omborga suqilgan ekan, sig'mabdi. Devorga tirmasha, chiqolmabdi. Bog'bon uni o'lasi qilib savalabdi, bo'rining yegan uzumlari og'zi-burnidan chiqib, oxirida kaltak zarbidan sulayib qolibdi. Bog'bon bo'rini o'ldiga chiqarib, tashlab ketibdi"*. Ushbu misolda bo'rining ochko'z jonzoat sifatidagi harakatlari ifodalangan. Bu tip obrazlarda alletrizm yetakchilik qiladi. Alletrizm har doim ishora qiluvchi va belgilovchi o'rtasidagi asosiy nomutanosiblikdir.

Natijalar.

Salbiy obrazlarning ertak matnidagi vazifalari quyidagilar:

1. **To'siq va sinov yaratuvchi.** Qahramon o'z yo'lida dev, ajdaho, zolim podsho kabi kuchlarni yengishi kerak.

2. **Axloqiy mezon ko'zgusi.** Salbiy obrazlar yovuzlik namunasi bo'lib, u orqali ijobiy fazilatlar ajralib turadi.

3. Yaxshilik bilan yomonlik kurashini aks ettiruvchi. Ertak oxirida odatda yomonlik yengiladi va jazolanadi.

Salbiy obrazlar turli badiiy vositalar bilan ifodalanadi. Xususan, bu tip obrazlarning tashqi ko‘rinishi tavsifiga e’tibor qaratilar ekan, devlar odatda “*yetti yoki uch boshli*”, “*qora ko‘zli*”, “*temir tirnoqli*” tarzda, jodugar yoki yalmog‘izlar esa “*bukri*”, “*burunsiz*”, “*vahmali yoki shirin ovozli*” tarzda tasvirlanadi. Salbiy obrazlar ertakda ko‘pincha *tajovuzkor*, *hiylakor*, *aldamchi* sifatida ifodalanadi, shuningdek, ularning nutqi ham salbiylik xarakterini ifodalovchi til birliklari bilan boyitiladi. Masalan:

– *Assalomu alaykum, – deb ichkariga kiribdi. Yalmog‘iz kampir:*

– *Agar haq saloming bo‘lmaganda, **ikki yamlab, bir yutgan bo‘lardim.** Kimsan, nega bu yerga kelding? Hozir jo‘nab ket, bo‘lmasa, qornim och, **pishirmasdan xomligingcha yutaman,** – debdi.* [8; 296]

Mazkur matnda yalmog‘iz kampirning nutqi qo‘rqinchli, tajovuzkor, tahdidli tarzda qurilgan. Bu uning salbiy xarakterini ifodalaydi. “*...ikki yamlab, bir yutgan bo‘lardim*” hamda “*...pishirmasdan xomligingcha yutaman*” iboralar kampirning shafqatsiz, yirtqich tabiatini ifodalaydi. Odatda insonlar ovqatni pishirib iste’mol qiladi – kampir esa “*xomligicha yutaman*” deya shafqatsizlikni haddan tashqari kuchaytirgan. Bunda, aytish mumkinki, giperbola muhim ahamiyat kasb etgan. Yalmog‘iz kampir ushbu nutqida buyruq, inkor va tahdid shakllari ustunlik qiladi. “*Jo‘nab ket!*” – bu buyruq gap. “*Agar haq saloming bo‘lmaganda...*”. Bu shartli va tahdidli sintaktik qurilma. “*Bo‘lmasa, yutaman!*” esa salbiy oqibat bilan qo‘rqitishni yuzaga chiqargan. Bu holat salbiy obraz nutqiga xos bo‘lgan lingvopoetik uslubiy modelni yuzaga chiqaradi.

Bunday obrazlarning aksariyati ramziy ma’no tashiydi. Jumladan, dev – jaholat, nafs, ajdaho – kutilmagan xavf yoki zamonaviy tilda ijtimoiy muammo, sehrgar kampir – yolg‘on va aldov ramzi sifatida ifodalanadi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, salbiy obrazlarning aksariyati etalonlik xususiyatiga egadir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklaridagi salbiy obrazlar afsonaviy, ijtimoiy, maishiy va simbolik salbiy kabi to'rt asosiy turkumni tashkil etadi. Har bir tip obrazning mifologik, tarixiy-ijtimoiy, diniy-ma'rifiy va estetik manbalari aniqlash va ushbu obrazlar tavsifidagi **metafora, ironiya, kinoya, epitet, giperbola, personifikatsiya** kabi lingvopoetik vositalarning o'rnini belgilash muhim hisoblanadi. Olib borgan tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, salbiy obrazlar ertak dramtizmini mustahkamlab, ijobiy qahramon fazilatlarini yanada yorqinlashtirish, axloqiy-psixologik stereotiplarni ifodalash hamda xalq estetik idealini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ertak matnlaridagi fonetik-ritmik, semantik-struktural qatlamlarga chuqurroq e'tibor qaratish, til birliklarining kontekstual chastotasini, ularning sinov va dramatik momentlardagi paydo bo'lish tendensiyalarini aniqlash, mintaqaviy dialektizm, frazeologizm va topografik madaniyat elementlari orqali salbiy obrazlar xarakterining mahalliy o'ziga xosliklarini tadqiq etish, ushbu obrazlar talaffuzi va mantiqiy obrazga ta'siri orqali qahramon psixologiyasiga, tinglovchi yoki o'quvchining hissiy reaksiyalariga qaratilgan eksperimental tadqiqotlar o'tkazish va mintaqalaridagi ertak an'analari bilan qiyoslab, salbiy obrazlarning umumiyturkiy stereotiplarini aniqlash bugungi kun tilshunosligi oldida turgan vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ешонқулов Ж. Ўзбек фолклорида дев образининг мифологик асослари ва бадиий талқини. Филол.фан.д-ри. ...дисс.автореф. – Тошкент, 1996. – 27 б.
2. Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фолклор ва адабиёт. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўз.Миллий курубхонаси нашриёти, 2016. – 184 б.
3. Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртак. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2014. – 308 б.
4. Мелетинский Б.М. Поэтика мифа. 3-е изд., репринтное. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2000. – 407 с.
5. Содиқова М.А. Ўғай қиз типдаги туркум эртакларнинг спецификаси, генезиси ва бадиияти. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2003. – 151 б.

6. Bozorov H.X. O'zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. – Toshkent: Grand kondor print, 2024. – 198 b.

7. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 28 b.

8. Uch og'ayni botirlar. O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 304 b.